

Termiz shahrida xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazildi



Termiz shahrida xotin-qizlar o'rtasida sport musobaqalari o'tkazildi

Bugun 26-sonli maktabda shahrimizdagi mahallalarda istiqomat qilayotgan xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini targ'ib etish, salomatligini mustahkamlash maqsadida ular o'rtasida "Shahar hokimi sovrini uchun" sport musobaqalari o'tkazildi. Musobaqaning ochilish marosimida Oila va xotin-qizlar davlat qo'mitasi bosh mutaxassisi B.Saidqosimov, viloyat hokimi o'rinbosari, Oila va xotin-qizlar boshqarmasi boshlig'i Z.Xidirova, shahar hokimi o'rinbosari M.Tagayeva, hamkor tashkilotlar, sport bo'limi mas'ullari, xotin-qizlar faollari hamda 300 nafar xotin-qizlar ishtirok etdi.

Sportning stol tennisi, shaxmat, shashka, engil atletika, arqon tortish hamda armrestling (qo'lda kuch sinash) turlari bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar qizg'in bellashuvlarga boy bo'ldi.

Musobaqalar yakunida g'olib xotin-qizlar Termiz shahar hokimining esdalik sovg'alari

bilan taqdirlandilar.

Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown




Image not found or type unknown

